# XALQ DEPUTATLARI UCHKO‘PRIK TUMANI KENGASHINING
# Q A R O R I

2024-yil 17-oktabr VI-104-220-11-162-K/24 Uchko‘prik tumani

**Uchko‘prik tumanida 2024-yilning o‘tgan uchinchi choragi yakunlari yuzasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘larning hisoboti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi “Byudjet ma’lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-son hamda 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-son Qarorlariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Uchko‘prik tumani Kengashi sessiyasi

**Q A R O R Q I L A D I:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-son qarorining 7-bob 81-bandiga asosan 2024-yil uchinchi chorak yakunlari bo‘yicha jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan **tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Raxmanaliyevning** hisoboti **ma’lumot** uchun qabul qilinsin.

**2.** Mazkur Kengash qarori bilan quyidagilar:

2024-yil uchinchi choragida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larining shakllanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2024-yil uchinchi chorak yakuni bo‘yicha “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hisobidan loyihalarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida ma’lumotlar **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

**3.** **Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Raxmanaliyev), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Daliyev) hamda Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (SHokirov) tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan birgalikda** kelgusida o‘tkaziladigan “Tashabbusli byudjet” jarayoniga keng jamoatchilikni jalb etish bo‘yicha targ‘ibot tashviqot ishlarini olib borsinlar.

**4.** **Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Raxmanaliyev), tuman hokimligi axborot xizmati (Ermatov)** “Tashabbusli byudjet” natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni keltirilgan **ilovalarga** muvofiq shakllarda **“Ochiq byudjet” axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga** joylashtirish va **har chorak yakunlariga** ko‘ra, **keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar** joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

**5.** Mazkur Kengash qarorining ijrosini ta’minlab borishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib **tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Begmatov va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Raxmanaliyev** belgilansin.

Qaror bajarilishini nazorat qilish vazifasi **xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi M.Dexqonov** zimmasiga yuklansin.

**6.** Ushbu Kengash qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiritiladi.

Sessiya raisi M. M. Dexqonov

Xalq deputatlari Uchko‘prik tumani
Kengashining
2024-yil 17-oktabrdagi
VI-104-220-11-162-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**2024-yil uchinchi chorak yakuni bo‘yicha tashabbusli byudjetlashtirish natijalari yuzasidan**

# MA’LUMOT

**2024-yil 1-oktabr**

| T/r | Ko‘rsatkich nomi | Summa (ming so‘m) |
|---|---|---|
| **1.** | Yil boshiga qoldiq | **541 659,8** |
| | *Shundan avvalgi mavsumlarda g‘olib bo‘lgan loyihalar uchun ajratilishi lozim bo‘lgan, qayta taqsimlanmagan mablag‘* | |
| **2.** | "Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"ga o‘tkazilgan mablag‘ | **18 198 848,5** |
| **2.1** | G‘olib loyihalarni moliyalshtirish uchun o‘tkazilgan mablag‘lar | 16 384 000,0 |
| **2.2** | Erkin qoldiq hamda daromadlarning xisobot choraklari yakunlari bo`yicha aniqlangan rejadan orttirib bajarilgan qismi | 366 000,0 |
| **2.3** | O‘tgan davrdagi g‘olib loyihalardan iqtisod qilinib jamg‘armaga o‘tkazilgan | 1 448 848,5 |
| **3.** | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan | **18 540 000,0** |
| **3.1.** | *Bajarilgan ishlar uchun hisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘* | 12 347 331,2 |
| **3.2.** | *Hisobvaraqlardagi qoldiq* | 6 192 668,8 |
| **4.** | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidagi qoldiq mablag‘ | **200 508,3** |

| T/r | Tadbirlar nomi | Moliyalashtirilgan takliflar soni | Ko‘rsatkichlar | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | **o‘lchov birligi** | **miqdori** | **sarflangan mablag‘** |
| **Jami** | | **23** | **X** | **X** | **30 411 421,0** |
| **1.** | Hududiy ichki yo‘llar | 9 | umumiy uzunligi | 27 | 12 189 521,0 |
| **2.** | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash | 6 | soni | 6 | 7 751 900,0 |
| **3.** | Maktabgacha ta’lim muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | | soni | | |
| **4.** | Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | 1 | soni | 1 | 1 350 000,0 |
| **5.** | Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | | soni | | |
| **6.** | Ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash | | umumiy uzunligi | | |
| **7.** | Ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish yoki tamirlash (transformator, simyog‘och o‘rnatish tadbirlari) | 4 | tadbirlar soni | 4 | 5 040 000,0 |
| **8.** | Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish) | | tadbirlar soni | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **9.** | Sport muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | 1 | soni | 1 | 1 360 000,0 |
| **10.** | Oliy o‘quv yurtlarini ta'mirlash va moddiy texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | 2 | soni | 2 | 2 720 000,0 |

Xalq deputatlari Uchko‘prik tumani Kengashining
2024-yil 17-oktabrdagi
VI-104-220-11-162-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**2024-yil uchinchi chorak yakuni bo‘yicha Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi hisobidan loyihalarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida**

## MA’LUMOT

| T/r | Loyihaning xos raqami (ID) | Loyihaning qisqacha mazmuni (sohasi) | Loyihaning moliyalashtirilishi (ming so‘m) | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Tashabbuskor tomonidan kiritilgan loyihaning dastlabki qiymati | Loyihani amalga oshirishdagi aniqlangan qiymati* | Ajratilgan mablag‘ | Bajarilgan ishlar uchun to‘lab berilgan mablag‘ | Loyiha ShXRda qoldiq mablag‘ |
| **Jami** | | **X** | **30 630 152,0** | **30 411 421,0** | **18 540 000,0** | **12 347 331,2** | **6 192 668,8** |
| **1.** | 032305505011 | Chorbog‘ MFYga qarashli Oroqchi qishlog‘I ichki yo‘llarini asfaltlash. | 1 300 000,0 | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 1 195 879,0 | 164 121,0 |
| **2.** | 032311086011 | Kichik kenagas MFY Mirishkor qishlog‘I ichki mahallalari ko‘chalarini eni 3.5 metrlik uzunligi 2700 metr asfaltlash. | 1 350 000,0 | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 1 098 274,0 | 261 726,0 |
| **3.** | 032312660011 | Mashad MFY Mashad ko‘chasi 690 metr, Tegirmonboshi ko‘chasi 790 metr, Istiqlol ko‘chasi 580 metr, Bunyodkor ko‘chasi 530 metr, Tegirmonboshi 110 metr ichki yo‘llarini 4 metr kenglikda asfaltlash. | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 1 204 464,0 | 155 536,0 |
| **4.** | 032301163011 | Beshkapa MFY - Obod, Shox guzar, Katta ariq ko‘chalarini 2700 metr qismini asfaltlash. | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 1 075 651,0 | 284 349,0 |
| **5.** | 032317001011 | Mahalladagi 36-maktabida bugungi kunda 800 ga yaqin o‘quvchilar ta'lim olib kelmoqda maktabning boshlang‘ich sinflar ta'lim oladigan filiali va asosiy binosi bugungii kunda o‘ta darajada ta'mirtalab binosini to‘liq qayta ta'mirlash zarur | 1 300 000,0 | 1 300 000,0 | 1 300 000,0 | 1 174 000,0 | 126 000,0 |
| **6.** | 032314434011 | Soy bo‘yi MFY Obod mallasi 1000 metr, Kanalbo‘yi mahallasi 800 metr, Yangiobod mahallasi 800 metr qismini asfaltlash | 1 360 000,0 | 1 310 000,0 | 1 310 000,0 | 1 035 831,0 | 274 169,0 |

| T/r | Loyihaning xos raqami (ID) | Loyihaning qisqacha mazmuni (sohasi) | Loyihaning moliyalashtirilishi (ming so‘m) | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Tashabbuskor tomonidan kiritilgan loyihaning dastlabki qiymati | Loyihani amalga oshirishdagi aniqlangan qiymati* | Ajratilgan mablag‘ | Bajarilgan ishlar uchun to‘lab berilgan mablag‘ | Loyiha ShXRda qoldiq mablag‘ |
| 7. | 032297498011 | Kattaqorako‘l MFYga qarashli Kattaqorako‘l qishlog‘idagi elektr tarmog‘ini yangilash: 1) 2dona 250 quvvatli zamonaviy transformator (TP), 2) 200 dona beton simyog‘och, 3) 4000 metr usti berk kabel. | 1 200 000,0 | 980 000,0 | 980 000,0 | 294 451,9 | 685 548,1 |
| 8. | 032309689011 | Uchko‘prik tuman 1-son kasb-hunar maktabini moddiy texnika bazasini rivojlantirish uchun: Elektron doskalar, 2 Elektr ustaxona jixozlari, 3 Tikuvchilik ustaxona jixozlari, 4 Komputer sinfi, 5 Oshpaz qandolatchi ustaxona jixozlari, 6 Sartaroshlik ustaxonasi jihozlari, 7 avtomobil yo‘l harakati honasi jihozlari, 8 Ingiliz tili xonasiga lingafon sinfi, 9 Sport jihozlari, 10 Avtotrenajor, 11 Monoblok komputer, 12 Printerlar ( uchtasi birda, rangli va termo), 13 ARMga komputerlar, 14 Ofis uchun mebellar, 15 Konditsionerlar inventor (12 va 14 talik), 16 Televizor 50dyumli, 17 Kuzatuv kameralari sotib olish uchun. | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 0,0 |
| 9. | 032314363011 | 24-maktabning tom qismi, eshik deraza, pol qismi, xojatxona, oshxona va tashqi ko‘rinishi. | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 1 181 663,4 | 178 336,6 |
| 10. | 032327016011 | Katta qo‘shtepa MFY Katta qo‘shtepa qishlog‘ining ichki yo‘llarini asfaltlash. | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 325 907,0 | 1 034 093,0 |
| 11. | 032324469011 | Olmazor ko‘chasi 3400 m, G‘ozig‘ijdvoni ko‘chasi 700 m, Tadbirkor ko‘chasi 1000 m, Yuksalish ko‘chasi 1900 m , 400 ta tayanch sim yog‘ochlarni almashtirish va yuqoridagi umumiy 7000 m nosoz simlarni yopiq kabelarga almashtirish, 1 ta TP 250 klavatlik yangi (TP) o‘rnatish. | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 403 243,8 | 956 756,2 |
| 12. | 032308505011 | Uchko‘prik tumani 10-umumiy o‘rta ta'lim maktab oshxonasi va o‘quv binolarini ta'mirlash. (Binolar tom va pol qismi va eshik-derazalarni almashtirish). | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 944 288,3 | 415 711,7 |
| 13. | 032314571011 | Uchko‘prik tuman 2-son kasb-xunar maktabi 2009 yilda tashkil topgan, shu yildan buyon o‘quv bino va o‘quv ustaxonasi mukammal tamirlash ishlari amalga oshirilmagan hamda issiqlik tizimi rekonstruksiya qilinmagan, yong‘in havfsizlik tizimi sistemasi talabga | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 1 053 677,8 | 306 322,2 |

| T/r | Loyihaning xos raqami (ID) | Loyihaning qisqacha mazmuni (sohasi) | Loyihaning moliyalashtirilishi (ming so‘m) | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Tashabbuskor tomonidan kiritilgan loyihaning dastlabki qiymati | Loyihani amalga oshirishdagi aniqlangan qiymati* | Ajratilgan mablag‘ | Bajarilgan ishlar uchun to‘lab berilgan mablag‘ | Loyiha ShXRda qoldiq mablag‘ |
| | | javob bermaydi, suv kanalizatsiya tizimlari nosoz holatga kelgan. | | | | | |
| **14.** | 048350108011 | Uchko‘prik TTBga qarashli 60- sonli OPda yetishmayotgan Stamatolog xona, Fizioterapiya xona, Kunduzgi shifoxona, 4-ta vrach xonasi, 4ta shifokor oldi xonasi, Tibbiy brigada xamshiralari uchun xona, UZIxonalar uchun Qo‘shimcha bino qurish. | 1 300 000,0 | 1 350 000,0 | 150 000,0 | 0,0 | 150 000,0 |
| **15.** | 048336534011 | Mashad MFY Istiqlol, Do‘stlik, Bunyodkor va Guzar ko‘chalari uchun yaroqsiz transformatorlar o‘rniga 2 ta TP 250 kVt lik transformator o‘rnatish, Tegirmonboshi ko‘chasi uchun qo‘shimcha TP 250 kVt lik transformator o‘rnatish, 280 ta beton stolba, 12000 metr yopiq kabel va 250 ta ko‘cha chiroqlari o‘rnatish. | 1 360 000,0 | 1 350 000,0 | 150 000,0 | 0,0 | 150 000,0 |
| **16.** | 048360546011 | 4-umumiy o‘rta ta'lim maktabi 1966-yilda qurilgan bo‘lib, bino eshik va derazalari ma'nan eskirgan. 2-bino tomi avariya xolatida. Maktabni moddiy texnika bazasini yangilash kerak. Bunday xolatlar o‘quvchilarga xavf tug‘dirmoqda. Maktab 660 nafar o‘quvchiga mo‘ljallangan bo‘lib, xozirda 840 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda. | 1 200 000,0 | 1 360 000,0 | 150 000,0 | 0,0 | 150 000,0 |
| **17.** | 048345543011 | Beshkapa MFY ichki yo‘llari shag‘allangan bo‘lib asfalt qoplamasi yotqizish zarur. | 1 359 765,0 | 1 359 756,0 | 150 000,0 | 0,0 | 150 000,0 |
| **18.** | 048357913011 | Katta kenagas MFY chki yo‘llarini asfaltlash. | 1 359 765,0 | 1 359 765,0 | 150 000,0 | 0,0 | 150 000,0 |
| **19.** | 048337896011 | Kichik kengas MFY Mirishkor kishlogi , Mirishkor kuchalariga jami 2 ta 400 VT transformatr, 200 ta beton ustun , tarmok 7000 metr yepik kabel bilan axoli xonadonlariga xam tortish urnatish yekib berish | 1 360 000,0 | 1 350 000,0 | 150 000,0 | 0,0 | 150 000,0 |
| **20.** | 048339393011 | Katta qo‘shtepa MFY ga qarashli Katta qo‘shtepa qishlog‘ining 2255 m ichki yo‘llariga shag‘al va asfalt yotqizdirish | 1 359 765,0 | 1 360 000,0 | 150 000,0 | 0,0 | 150 000,0 |
| **21.** | 048335435011 | Tumandagi Sport maktabining 5000 o‘rinli tribunasi (o‘rindiqlarini) yangilash hamda moslashtirilgan sport zallarini zamonaviy uslubda ta'mirlash. Sport maktabiga Quyosh paneli o‘rnatish. | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 150 000,0 | 0,0 | 150 000,0 |

| T/r | Loyihaning xos raqami (ID) | Loyihaning qisqacha mazmuni (sohasi) | Loyihaning moliyalashtirilishi (ming so‘m) | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Tashabbuskor tomonidan kiritilgan loyihaning dastlabki qiymati | Loyihani amalga oshirishdagi aniqlangan qiymati* | Ajratilgan mablag‘ | Bajarilgan ishlar uchun to‘lab berilgan mablag‘ | Loyiha ShXRda qoldiq mablag‘ |
| **22.** | 048348186011 | Uchko‘prik tuman MMTBga qarashli 29-umumta'lim maktabini xona pollarini va eshik - derazalarini yangilash. Xojatxonani ta'mirlash. | 1 360 000,0 | 1 360 000,0 | 150 000,0 | 0,0 | 150 000,0 |
| **23.** | 048349495011 | 12-ymymta'lim maktabini jixozlash | 1 220 857,0 | 1 011 900,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |